


III. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 980,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -7,1 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 82,4 % ni), suv bilan ta'minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatining - 79,9 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,2 % ni) o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'mda




B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,4 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2025- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 14 817,7 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 82,4 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun	2025-yil yanvar-iyun
Paxta chigiti, tonna	19609,2	6741,2
Paxta tiviti (lint), tonna	686,4	354,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	20 991	23 828,0
Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, tonna	18182,8	13 745,1
Tozalanmagan paxta yogʻi, tonna	8 662,5	5653,9
Tozalangan paxta yogʻi va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	6 318,0	2011,7
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	23 292,2	21 395,3
Mashinada yoki qoʻlda toʻqilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	3 262,6	3618,5

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 6 741,2 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 65,6 % ga kamaygan), 354,7 tonna paxta tiviti(lint) (48,3 % ga kamaygan), 23 828,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (13,5 % ga koʻpaygan), 13745,1 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (24,4 % ga kamaygan) hamda 5 653,9 tonna tozalanmagan paxta yogʻi (34,7% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


**2025- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Faoliyat turlari	mlrd so'm	ulushi, % da
Ishlab chiqaradigan sanoat	14817,7	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3527,2	23,8
ichimliklar ishlab chiqarish	559,7	3,8
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3748,9	25,3
kiyim ishlab chiqarish	2042,7	13,8
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	329,3	2,2
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	34,2	0,2
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	122,0	0,8
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	12,7	0,1
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	8,6	0,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	359,9	2,4
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	95,1	0,6
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	381,7	2,6
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	861,4	5,8
metallurgiya sanoati	524,4	3,5
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	513,9	3,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	100,9	0,7
elektr uskunalari ishlab chiqarish	766,2	5,2
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	44,3	0,3
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	14,1	0,1
boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	0,8	0,0
mebel ishlab chiqarish	310,1	2,1
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	441,1	3,0
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	18,6	0,1

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2024- yil yanvar-iyun oylarida – 1,1 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalarni ulushi 8,0 % ni (7,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 15,6 % ni (15,1 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 75,1 % ni (76,2 %) tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 869,0 mlrd soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
(2025- yil yanvar-iyun)

	2025- yil	2024- yil	2024- yilga nisbatan, Farqi (+/-)
Elektroyenergiya - mln kVt/s	3 021,9	3 137,1	-115,2
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	49,9	63,9	-20,0

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 227,2 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun	2025-yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta‘minoti xizmatlari- mlrd so‘m	68,8	71,6	104,1
Oqava suvlarning shlami - mlrd so‘m	4,7	6,2	131,9
Xavfli bo‘lmagan chiqindilarni yig‘ish xizmatlari- mlrd so‘m	30,9	32,6	105,5


Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Chortoq tumani (2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 120,7 % ga), Chust tumani (113,2 % ga), Yangiqo‘rg‘on tumani (112,1 % ga) hamda Kosonsoy tumani (110,4 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi ta‘minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha jami	17 980,3	100,0	109,1
Namangan sh.	5 351,9	29,8	105,6
Mingbuloq	535,9	3,0	102,5
Kosonsoy	892,5	5,0	110,4
Namangan t.	959,7	5,3	106,1
Norin	174,2	1,0	107,3
Pop	444,3	2,5	108,6
To‘raqo‘rg‘on	3 123,9	17,4	106,6
Uychi	940,2	5,2	107,6
Uchqo‘rg‘on	479,2	2,7	108,4
Chortoq	517,0	2,9	120,7
Chust	1 593,7	8,9	113,2
Yangiqo‘rg‘on	263,3	1,5	112,1

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**
(2025- yil yanvar-iyun)

(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,8 % ulushini), To'raqo'rg'on (17,4 %), Chust (8,9 %), Namangan tumani (5,3 %), Uychi tumani (5,2 %), Kosonsoy tumani (5,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 12 402,5 ming so'm, Namangan shahrida 7435,9 ming so'm, Chust tumanida 5 445,5 ming so'm, Namangan tumanida 4 845,6 ming so'm, Uychi tumanida 3 939,9 ming so'm, Mingbuloq tumanida 3 918 ,9 ming so'm tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Chortoq (2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 118,3 %), Chust (111,0 %), Yangiqo'rg'on (110,0 %), Kosonsoy (108,1 %) va Namangan (108,4 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Namangan shahrida (103,2%) va Mingbuloq tumanida (100,5 %) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2025- yil yanvar-iyun)




Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda
(2025- yil yanvar-iyun)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 098,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 20,3 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini
sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**
(2025- yil yanvar-iyun)



**2025- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha	5 717,0	106,9
Namangan sh.	7 465,9	103,2
Mingbuloq	3 819,8	100,5
Kosonsoy	3 812,7	108,1
Namangan t.	4 845,6	103,7
Norin	969,0	105,3
Pop	1 846,4	106,8
To‘raqo‘rg‘on	12 402,5	104,3
Uychi	3 939,9	105,3
Uchqo‘rg‘on	2 530,0	106,5
Chortoq	2 349,6	118,3
Chust	5 445,5	111,0
Yangiqo‘rg‘on	1 084,5	110,0

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 237,5 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,4 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) va Norin tumanlarida (99,9%) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (8,3 %), Chust (21,0 %), Mingbuloq (27,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da (2025-yil yanvar-iyun)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 88 ta loyiha bo'yicha 1215,5 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

	2025-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni	88	130
Korxonalar soni	62	88
Ishlab chiqarish hajmi (Mlrd so'm)	1215,5	900,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlar (birlikda)	587	759

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 226 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 577 tasi Namangan shahriga, 324 tasi Kosonsoy, 313 tasi Namangan tumaniga, 295 tasi Chust, 293 tasi Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 325 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 33,8 % i Namangan shahrida tashkil etadi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari soni, birlikda
(2025- yil yanvar-iyun holatiga)**

	faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)		yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Viloyat jami	4 512	4 226	445	325
Namangan sh.	1 603	1 577	115	110
Mingbuloq	118	114	35	14
Kosonsoy	360	324	44	27
Namangan t.	359	313	19	25
Norin	233	217	32	23
Pop	215	196	21	7
To'raqo'rg'on	316	287	29	26
Uychi	291	293	25	25
Uchqo'rg'on	264	192	30	17
Chortoq	186	174	18	11
Chust	334	295	24	13
Yangiqo'rg'on	233	244	53	27